

ABDURAUF FITRAT “SHARQ” SHE’RINING NASHRLARARO QIYOSIY- TEKSTOLOGIK TAHLILI

*Giyosova Xilola Normaxamat qizi,
O‘zR FA Alisher Navoiy nomidagi Davlat
adabiyot muzeyi tayanch doktoranti
hilolagiyosova0405@gmail.com
Tel: +998 97 784 72 31*

Annotatsiya: Maqolada Abdurauf Fitratning “Sharq” she’ri 1922-yilgi “O‘zbek yosh shoirlari” to‘plami, 1987-yilgi “O‘zbek adabiyoti va san’ati” gazetasi (№50), 2000-yilgi “Tanlangan asarlar” hamda 2011-yilgi “Saylanma” nashrlari asosida qiyosiy-tekstologik jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda leksik, fonetik, morfologik, sintaktik hamda g‘oyaviy o‘zgarishlar aniqlanadi. Matn variantlaridagi tafovutlar o‘zbek adabiy tilining tarixiy taraqqiyoti va sovet davri senzura siyosati bilan bog‘liq holda izohlanadi. Ilk nashr poetik keskinlik va g‘oyaviy aniqlikni saqlab qolganligi ilmiy dalillar asosida ko‘rsatib beriladi.

Kalit so‘zlar: Fitrat, “Sharq”, matnshunoslik, jadid adabiyoti, variant, senzura, matniy tahlil.

Аннотация: В статье проводится сравнительно-текстологический анализ стихотворения «Sharq» Абдурауфа Фитрата на основе изданий 1922, 1987, 2000 и 2011 годов. Выявлены лексические, морфологические, синтаксические и идеологические изменения текста. Показано влияние редакционной политики советского периода и исторического развития узбекского литературного языка на трансформацию произведения. Доказано, что ранняя версия текста сохраняет большую художественную экспрессию и идейную остроту.

Ключевые слова: Фитрат, «Sharq», текстология, вариант текста, джадидизм, цензура.

Abstract: This article presents a comprehensive textual analysis of the poem “Sharq” by Abdurauf Fitrat based on editions published in 1922, 1987, 2000, and 2011. The study identifies lexical, morphological, syntactic, and ideological transformations in the text. The findings demonstrate the impact of Soviet editorial policy and the historical development of the Uzbek literary language on the evolution of the poem. The earliest edition preserves stronger poetic intensity and ideological sharpness.

Key words: Fitrat, “Sharq,” textual criticism, jadid literature, censorship, variant analysis.

XX asr boshlarida jadid adabiyoti milliy uyg‘onish harakatining muhim tarkibiy qismiga aylandi. Ushbu jarayonning yetakchi namoyandalaridan biri — Abdurauf Fitratdir. Fitratning 1922-yilda “O‘zbek yosh shoirlari” to‘plamida e‘lon qilingan “Sharq” she’ri mustamlakachilikka qarshi ruh, milliy o‘zlikni anglash g‘oyalari bilan sug‘orilgan. Bu she’r keyinchalik 1987, 2000 va 2011-yillarda ham qayta nashr etilgan. Tahlil uchun aynan shu yillardagi nashrlardan foydalandik. She’r tahlilidan avval 1922-yilda nashr etilgan “O‘zbek yosh shoirlari” to‘plamidan o‘rin olgan “Sharq” she’rining asl variantini berib ketishni lozim topdik.

“O‘zbek yosh shoirlari” /1922 “O‘zb adabiyoti va san’ati” jur. 1987/№50 “Saylanma”/2011

Tanlangan asarlar/2000

uchmox	ujmoh	uchmoh	uchmoh
evrilishlar	emilishlar	evrilishar	evrilishar
daxi dohiy	dahi dahi		
tengizlardan	dengizlardek	tengizlardan	tengizlardan
daxi muzdan	dohiy muzdan	dahmuzdan	dahi muzdan
bunda qurdi har ulusning har nasi	bunda turdi har ulusning har sasi	bunda turdi	har ulusning
harnasi	bunda turdi har ulusning har sasi		
ham munda o‘q yashadi	ham shunda o‘q yasadi	ham munda o‘q yashadi	ham munda
o‘q yashadi			
talanelar omomsiz	talanelar omomsiz	talaneladir omomsiz	talaneladir omomsiz
qush boqishi	qush boqishi	qush boqish-la	qush boqish-la
ko‘kragini, eri bo‘lg‘an yigitning	ko‘kragini, eri bo‘lg‘an yigitning		
—	ko‘kragini, eri bo‘lg‘an yigitning		
Sho‘r suvlardan chiqib kelgan bir maymun	Sho‘r suvlardan chiqib kelgan bir maymun		

—
Tulki, ilon, shayton, aldovchi mal'un
—
—
—

Angliz! Ingliz! — —

Hamda uning quyrug'ini tutqonlar Hamda uning quyrug'ini tutganlar
—
—

Shoirning turli yillar va turli nashrlarda chop etilgan “Sharq” she’rini qiyosiy tahlil qilish jarayonida eng avvalo fonetik va imloviy o’zgarishlar ko’zga tashlanadi. Har bir grafik tizim fonetik hodisalarni turlicha ifodalaganligi sababli matnning tashqi ko’rinishida sezilarli o’zgarishlar yuzaga kelgan.

Fonetik va imloviy tafovutlar

1922-yilgi nashrda uchraydigan “uchmox” shakli eski o’zbek adabiy tilidagi fonetik va morfologik xususiyatlarni saqlagan. Bu yerda x undoshi arab yozuvida “خ” harfi orqali ifodalangan. 1987-yilgi nashrda esa bu so’z “ujmoh” tarzida beriladi. Fonetik nuqtayi nazardan “ch” → “j” almashinuvi turkiy tillarda ba’zi shevalarda uchrasa-da, Fitrat matnida bu o’zgarish muallif uslubiga xos emas, balki tahririy talqin mahsuli sifatida ko’riladi.

1922-yilgi matnda uchraydigan “tengiz” shakli qadimgi turkiy til qatlamini aks ettiradi. Ma’lumki, O’rxun-Enasoy bitiklaridan boshlab “teniz” shakli qo’llangan. Bu yerda so’z boshidagi “t” undoshi tarixiy fonetik norma bo’lgan. Keyingi nashrlarda esa so’z “dengiz” tarzida beriladi. Bu hodisa turkiy tillarda kuzatiladigan jaranglashish (t → d) jarayonining natijasidir. O’zbek adabiy tilining keyingi taraqqiyot bosqichida “dengiz” shakli me’yorlashgan va lug’aviy norma sifatida mustahkamlangan. Shuningdek, aynan shu so’zning “tengizlardan” va “dengizlardek” shaklida ifodalanishi ham she’r ma’nosini o’zgartirib yuborgan.

So’zlardagi o’zgarishlar

“Sharq” she’ri variantlarini qiyoslash jarayonida fonetik tafovutlardan tashqari, so’zlardagi o’zgarishlar ham alohida e’tiborni tortadi. Bunday o’zgarishlar matn shaklidan ko’ra mazmuniga kuchliroq ta’sir ko’rsatadi. Ayniqsa, ayrim so’zlarning boshqa so’z bilan almashtirilishi yoki grammatik shaklning o’zgartirilishi poetik ohang va g’oyaviy urg’uni sezilarli darajada o’zgartiradi. Shunday o’zgarishlardan biri 1922-yilgi nashrda uchraydigan “daxi” so’zi eski o’zbek adabiy tiliga xos bo’lib, “yana”, “tag’in”, “ham” ma’nolarini bildiradi. Bu birlik matnda qo’shimcha kuchaytirish, takroriy urg’u yoki mantiqiy davomiylilik vazifasini bajaradi. Masalan, “daxi muzdan” birikmasida “yana muzdan”, “yana sovuqdan” kabi ma’no yuzaga keladi. 1987-yilgi nashrda esa bu so’z “dohiy” tarzida berilgan. “Dohiy” jumlası mutlaqo boshqa so’z bo’lib, “buyuk iste’dod sohibi” degan ma’noni anglatadi. Bu o’zgarish matn mazmunini butunlay o’zgartirib yuboradi va mantiqiy bog’lanishni buzadi. Ehtimol, bu arab yozuvidagi grafemik o’xshashlik (خ va o harflarining noaniq o’qilishi) yoki noto’g’ri transliteratsiya natijasidir. Har holda, “dohiy” varianti muallif uslubiga mos kelmaydi va kontekstual jihatdan asoslanmaydi.

She’r mazmuniga ta’sir qiluvchi yana bir muhim tafovut “talanalar omonsiz” shaklining keyingi nashrlarda “talanadir omonsiz” tarzida berilishidir. 1922-yilgi variantdagi “talanalar” shakli harakatning ko’plik shakli ma’nosida dramatismni kuchaytiradi: jumlada jarayonning to’xtovsiz, ommaviy tus olgani seziladi. Keyingi variantdagi “talanadir omonsiz” esa fe’lning hozirgi zamon umumlashma shakliga yaqinlashadi, ko’plik va takroriylik ma’nosini yo’qotadi. Natijada ma’no jihatdan ta’sir kuchi pasayadi. “Talanalar”dagi ko’lam va ko’p qirralilik “talanadir”da umumiy hukm shakliga aylanadi. Bu o’zgarish she’r ritmiga ham ta’sir ko’rsatadi: ko’plik qo’shimchasi (-lar) misra vaznini to’ldirib, fonetik ohangdorlikni ta’minlagan bo’lsa, “talanadir” shakli uni soddalashtiradi.

So’zlardagi bunday chalkashliklarni ko’plab o’rinlarda uchratish mumkin. Misol uchun, 1922-yildagi nashrda “ulusning har sasi” birikmasi, yuqoridagi nashrlarda “ulusning har nasi”, “ulusning harnasi” shaklida ham kelib, matn mazmunini butunlay o’zgartirib yuborgan.

Matndagi grammatik darajadagi tahririy o’zgarishlar

Yuqoridagi she’r variantlarini qiyoslash shuni ko’rsatadiki, matnda nafaqat fonetik va leksik, balki morfologik hamda sintaktik darajadagi o’zgarishlar ham yuz bergan. Bunday tafovutlar ko’pincha

tarixiy grammatik shakllarning zamonaviy adabiy til me'yoriga moslashtirilishi natijasida paydo bo'ladi. Natijada matnning grammatik ko'rinishi soddalashadi, biroq ayrim hollarda uning tarixiy-uslubiy xususiyatiga putur yetadi.

1922-yilgi variantda uchraydigan "tutqonlar" shakli eski o'zbek adabiy tiliga xos bo'lgan sifatdosh qo'shimcha orqali yasalgan. Bu qo'shimcha qadimgi turkiy til davridan boshlab faol qo'llanib kelgan bo'lib, harakatning bajarilganini bildirgan: Demak, "tutqonlar" shakli tarixiy-morfologik qatlamni aks ettiradi va jadid davri yozma nutqida tabiiy hisoblangan. Keyingi nashrlarda esa bu shakl "tutganlar" tarzida beriladi. Bu o'zgarish o'zbek adabiy tilining XX asr o'rtalaridan boshlab me'yorlashgan grammatik tizimi bilan bog'liq. Mazkur o'zgarish she'r shakli yoki mazmunini o'zgartirmaydi, biroq matnning tarixiyligini susaytiradi va jadid davri tiliga xos ohangni soddalashtiradi.

She'rning ayrim variantlarida uchraydigan "boqish-la" shakli ham matnshunoslik nuqtayi nazaridan ahamiyatlidir. Bu yerda "-la" qo'shimchasi qadimgi vosita kelishigi yoki bilan ko'makchisi o'rnida kelgan: "boqish bilan", "boqish orqali" ma'nosini bildiradi. U barmoq vaznida qo'shimcha urg'u hosil qilib, misra vaznini to'ldiradi va fonetik ohangdorlikni kuchaytiradi. Uning tushirib qoldirishi esa she'r ma'nosiga ta'sir qilib, misraning ohangdorligini susaytiradi. "Tutqonlar" va "boqish-la" shakllaridagi o'zgarishlar tarixiy shakllar matnda murakkabroq, qadimgi yozma uslubga xos shakl hosil qilgan bo'lsa, keyingi variantlar soddaroq va zamonaviy she'riyatga yaqinlashadi. Bu esa matnni o'qish uchun qulaylashtirsa-da, uning uslubiy bo'yoqdorligini kamaytiradi. Shunga o'xshash tavofutlar yuqoridagi jadvalda batafsil berilgan.

Xulosa qilib aytganda, Abdurauf Fitratning "Sharq" she'ri turli yillardagi nashrlari qiyosiy o'rganilganda, asar murakkab matniy tarixga ega ekani yaqqol namoyon bo'ladi. Variantlardagi o'zgarishlar shunchaki imlo yoki tahrir masalasi emas, balki o'zbek adabiy tilining tarixiy taraqqiyoti, yozuv tizimlarining almashinuvi hamda muayyan siyosiy-mafkuraviy muhit bilan bog'liq jarayonlarning aksidir. Umuman olganda, mazkur she'rning turli variantlari bitta badiiy matnning turli davrlarda qanday talqin va tahrirga uchrashini ko'rsatuvchi yorqin misoldir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Фитрат А. Ўзбек ёш шоирлари. – Тошкент, 1922.
2. "Ўзбек адабиёти ва санъати" журнали. – 1987. – № 50.
3. Фитрат А. Танланган асарлар. – Тошкент: Маънавият, 2000.
4. Фитрат А. Сайланма. – Тошкент: Akademnashr, 2011.

